

Oilada Farzandni Barkamol Qilib Tarbiyalashning Ijtimoiy- Psixologik Omillari

Bahronova Mavluda O'tkir qizi

Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada oilada farzandni barkamol tarbiyalash jarayonining ijtimoiy-psixologik omillari tahlil qilingan. Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida farzandning axloqiy, ma'naviy va psixologik rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynashi ta'kidlangan. Tadqiqotda oilaviy tarbiyaning ijtimoiy jihatini, milliy qadriyatlarning axloqiy tarbiyadagi o'rni va zamonaviy oilalardagi tarbiya jarayonining o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Shuningdek, ota-onaning shaxsiy namunasi, farzand bilan muloqot qilish uslublari va oilaviy muhitning bola ruhiyatiga ta'siri batafsil ochib berilgan. Ushbu tadqiqot oilaviy tarbiya masalalari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, psixologlar va pedagoglar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: Oila, ota-ona, jamiyat, barkamol avlod, shaxsiy na'muna.

Kirish:

Oilaviy tarbiya har bir jamiyatning asosiy ijtimoiy vazifalaridan biri bo'lib, barkamol shaxsni shakllantirishning dastlabki bosqichidir. Oilada shakllangan muhit va tarbiya uslublari farzandning kelajakdagi shaxsiyati, ijtimoiy munosabatlari va hayotga bo'lgan qarashlarini belgilaydi. Ushbu maqolada oilada farzand tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy va psixologik omillar o'rganiladi, hamda ular qanday shakllanishi va qo'llanilishi tahlil qilinadi.

Oilaviy tarbiyaning ijtimoiy ahamiyati shundaki, oila nafaqat shaxsning biologik rivojlanishini ta'minlaydi, balki uning ijtimoiylashuvi jarayonida muhim omil hisoblanadi. Ota-ona va boshqa oila a'zolari tomonidan beriladigan tarbiya bolada quyidagi ijtimoiy sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi:

Axloqiy me'yorlar: Jamiyat qoidalari va qadriyatlariga mos xulq-atvorni shakllantirish.

Ijtimoiy mas'uliyat: Bola o'z faoliyatida jamiyat manfaatlarini hisobga olishni o'rganadi. Muloqot madaniyati: Bola oiladagi muloqot orqali ijtimoiy ko'nikmalarni egallaydi. Jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida oila orqali avloddan-avlodga ijtimoiy qadriyatlar uzatiladi, bu esa farzandning jamiyatda kerakli va muvaffaqiyatli shaxs bo'lib rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Materiallar va uslublari:

Kishilik jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti tarixidan ma'lumki, bola shaxsining kamoloti oilada shakllanadi. Oila — jamiyat hayotining kichik bir debochasi bo'lib, har tomonlama sog'lom, barkamol avlodni voyaga yetkazish uchun g'oyat muhim tarbiya maskanidir. O'zbek oilalari barchasi savodxon, ma'lumotli, kamolikka intiluvchi deb atasak, xato qilmagan bo'lamiz, ana shu imkoniyatlar ta'sirida o'g'il va qizlar bilimli, fikr-mulohazali, topqir, ishbilarmon, aql-zakovati bo'lib voyaga etmoqdalar. Oilaning asosiy tayanchi bo'lgan ota, hayotning barcha mashaqqatlaridan totib ko'radi, o'zining bukilmaz irodasi, adolatparvarligi, hayot sinovlariga bardoshlilik bilan ajralib turuvchi buyuk shaxs sifatida gavdalanadi. Ota — oilaning boshlig'i, posbonidir. Zero, oilaning har bir ko'z ilg'amas nuqtalarini ilg'ay olish, oila a'zolariga faqat to'g'ri, haq yo'lni ko'rsatib turishdek insoniy mas'uliyat, oilaning zipisligi ota zimmasida turadi. Ota oilada o'z

farzandlariga har tomonlama yurish-turishda, nutq odobida, o'zaro muomala madaniyatida, eng muhimi amaliy ish faoliyatida to'g'rilik va haqqoniylik yuzasidan namuna ko'rsatadi. Murg'ak tasavvurli bola ilk tarbiyani oilada oladi. Bola tarbiyasining ilk saboqlari haqida Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud Axloq" kitobida quyidagi hikmatli so'zlarini aytgan edi: "Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvvatlantirmak, zexnimizni ravshanlashtirmak lozim". Oilada kattalarning obro'si qo'rqitish asosida emas, balki samimiylik, o'zaro hurmat-ehtirom, bolani tushana olish zamiriga qurilishi maqsadga muvofiqdir. Oila a'zolarining totuvligi, o'zaro hamjihatligi, kiyinish madaniyati, mehnat faoliyati, boshqalar bilan suhbatlari va ularning boshqa sifat hamda fazilatlarini bolaning murg'ak tasavvuriga yangi timsollarni olib kiradi. Oila tarbiyasi bolaning kelajakda kim bo'lib yetishishidano'ni beqiyos, bola dastlab oilada jamiyatningyuzi hisoblanadi, bo'lajak fuqaroning huquq va burchlari, dunyoqarashi va axloqiy qarashlari oilada shakllanadi, shu asosda jisman va ruhan kamol topib boradi. Bola uchun oiladagi sog'lom ijtimoiy-ruhiy muhit, madaniy-ma'naviy va axloqiy qadriyatlar, an'analar, ijtimoiy-hayotiy tajribalar, bilim, ko'nikma va malakalar manbaidir. Bola oilaviy tarbiya jarayonida sayqallanib boradi, tarbiyaning mohiyati kishini hayotga tayyorlashdan iborat bo'lib, tarbiyaning mazmuni, yo'nalishi, maqsadi va vazifasi kishilarning o'zaro munosabatlariga bog'liq. Kishi shu munosabatlarga asosan hayotga biron-bir tarzda qaraydigan bo'ladi, tafakkuri orqali olamni anglaydi va o'zining unga nisbatan munosabatini shakllantiradi, muayyan axloq mezonlari ruhida tarbiyalanadi, chunki oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, xissiyoti va tuyg'ulariga chuqur ta'sir ko'rsatadi.

Oiladagi ma'naviy-ruhiy muhit, bola tarbiyasida g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lib, oila a'zolarining turmush tarzi ko'p hollarda farzandlarning ruhiy kayfiyati, tasavvuri va xissiyotlarini belgilab beradi. Demak oila sog'lom, barkamol insonni tarbiyalab voyaga etkazishda jamiyat oldida mas'uldir. Oilada tarbiya topgan xar bir inson xar jixatdan umuminsoniy ahloqiy, ilmiy, e'tiqod va boshqa sohalarda kamolatga yetgan hislatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi lozim, kamolot sari intilgan kishi asta-sekin olamni, o'zligini taniy boshlaydi.

Komillik insonning adolatli bo'lishi, xaqiqat va yaxshilikka intilishi, vijdonan pok, o'z hatolarini anglab, ulardan xalos bo'lishga xarakat qilishi demakdir, ma'naviyatni boyitish, iymon-e'tiqodli, aql-zakatli bo'lish kishilarni g'aflatdan uyg'otadi, barcha ezgu tilaklarini ro'yobga chiqaradi. Yosh avlodni barkamol, sog'lom, Vatan tuyg'usini xis qila oladigan shaxs qilib voyaga etkazish, birinchi navbatda, oilaga va ota-onaga bog'liqdir. Yosh avlodda kelajakka bo'lgan ishonch xissini uyg'otish uchun esa, ajdodlarimizning ma'naviy-axloqiy merosini chuqur o'rgatish, ularning iste'dodi va qobiliyatini buyuk maqsadlar sari yo'naltirish maqsadga muvofiqdir. Masalan, oilalarda moddiy boylikning ko'payishi, undan ota-onalar va bolalarning noto'g'ri foydalanishi, o'smirlarning bir qismida hayotga iste'molchilik, boqimandalik nuqtai-nazardan qarashni, tubanlikni, xudbinlikni keltirib chiqaradi, mehnatsiz boylik orttirish kayfiyati kuchayadi.

Oila — nikoh yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orining birligi, o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga boglangan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari — inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining turmush sharoitini va bo'sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsada, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta'sirida o'zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o'zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o'rnatadi.

Oila xalqning, jamiyatning hayoti, turmushiga oid urf-odatlarini o'zida sinovdan o'tkazadi. Yaxshilarini o'z bag'rida asrab-avaylab kelajak avlodlarga yetkazadi. Oila o'z farzandlarini tarbiyalab, ularga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan ularga boshlang'ich ijtimoiy yo'nalish beradi. O'z farzandlarini katta oqimga — jamiyatga qo'shish bilan esa Oila jamiyat yo'nalishi, iqtisodiyoti, madaniyati va ma'rifatini ham belgilashga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun ham sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo'rg'on hisoblanib kelingan. Xususan, o'zbek oilalarining serildizlik, serbutoqlik xususiyatlari hozir ham saqlanib turibdi. O'zbeklarda oilalarning muayyan turmush tarzi shakllanib hayotiy tajriba orttirib borishi, tejamli va sarishta ro'zg'or tutishi,

farzandlarni odobli, ma'naviy yetuk bo'lib kamol topishida keksalar, ota-onaning roli katta. o'zbek oilalari o'zlarining mustahkamligi, saran-jom-sarishtaligi, bolajonligi, qarindosh-qondoshlik rishtalarini hurmat qilishi, mehr-oqibatli va boshqa qadriyatlarini bilan ajralib turadi (qarang oila tarbiyasi).

O'zbekistonning davlat mustaqilligi tufayli xalqimizning azaliy milliy urf-odat va marosimlari qaytadan tiklana boshlandi, bu udumlar oilani mustahkamlashda muhim o'rin egallaydi. O'zbekiston hukumati oila masalalariga davlat siyosati darajasida bajarilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifa sifatida qaraydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 1998-yilni "Oila yili" deb e'lon qildi. Shunga asosan, oila manfaatlarini ta'minlash borasida amalga oshiriladigan tadbirlar to'g'risida davlat dasturi ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi huzurida Respublika "Oila" ilmiy amaliy markazi tashkil etildi. Oilaviy hayot masalalarini huquqiy tartibga solishga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi qabul qilingan.

Natijalar va muhokamalar:

Oila tarbiyasi — oilada ota-ona, vasiy yoki katta kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalash. Yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta'sirchan kuch-oilada ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro'sining yuqori bo'lishi, bolalarga talab qo'yishda oila kattalari o'rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e'tibor berish, bolani sevishtirish va izzatini joyiga qo'yish, oilada qat'iy rejim va kun tartibini o'rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o'zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo'llab-quvvatlash va h.k. Oila qanchalik tartibli, uning a'zolari o'rtasidagi munosabat samimiy bo'lsa, oila tarbiyasi ham shunchalik muvaffaqiyatli bo'ladi. Oila tarbiyasida ota-ona obro'si, ularning kuzatuvchanligi, sezgirligi, hozirjavobligi muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Oila tarbiyasida tarbiya jarayoni zerikarli, quruq nasihatgo'ylikdan iborat bo'lib qolmasligi lozim. Bola hayotining ko'p qismi oilada o'tadi. Shu boisdan mavjud an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta'sirida bola asta-sekin kamol topib boradi. An'ana va marosim oila tarbiyasining qudratli qurolidir. Oila tarbiyasi ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo'lsagina, kutilgan natijalarga erishish mumkin. Oila tarbiyasida yutuklarga erishish ota-onalarning pedagogik bilimlarga egaligi, oila tarbiyasi bo'yicha tajribalar almashishi, ota-onalarni tarbiyaviy ishlarga qizg'in jalb qilishga ham bog'liqdir. Har bir ota-ona oila tarbiyasida o'zlarining burch va mas'uliyatlarini chuqur anglashlari lozim. **Normal oilaviy muhit**, bolani kitob o'qishga, mehnat qilishga o'z vaqtida jalb etish ham Oila tarbiyasining muvaffaqiyati garovidir. Oilada ota yoki onaning yo'qligi yoki ulardan birining ketib qolishi oila tarbiyasiga katta zarar yetkazadi. Ularning bolaga beradigan tarbiyaviy ta'sir kuchi yo'qoladi, oila tarbiyasidagi muvozanat buziladi. Bunday sharoitda bola qalbi qattiq jarohatlanadi, u tajang, serjahl, qo'pol, dag'al bo'lib qoladi, kattalarga ishonmay qo'yadi, o'qishi pasayib ketadi. Oila tarbiyasida otaning obro'si katta ahamiyatga ega. Bolalarni barkamol inson qilib yetishtirishda maktabni oila bilan bog'lamaidan muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun oila tarbiyasida maktab va ota-onalar o'rtasidagi ta'limtarbiyaga oid birgalikdagi ishlari katta ahamiyatga ega. Ota-onalarning o'qituvchilar bilan bo'lgan uchrashuvlarida aytilgan fikrlar, ayniqsa qimmatlidir. Chunki ular o'z farzandlari to'g'risida ko'proq narsalarni bilib oladilar. Shuning uchun bola tarbiyasining tub mohiyatini tushungan har bir ota-ona oila bilan maktab o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga intiladi. Bola maktabni tamomlagunga qadar ota-ona maktab bilan yaqin aloqa o'rnatishi, farzandining darslarini o'zlashtirishi, xulq-atvoridan xabardor bo'lib turishi, tarbiya masalalarida o'qituvchi, sinf rahbari bilan maslahatlashib turishi, bolaning darsdan so'ng nima bilan mashg'ulligi haqida o'qituvchi va sinf rahbarini xabardor qilib turishi lozim. O'z navbatida o'qituvchi va sinf rahbari ham bolaning o'qishi, odobi, xulqi, maktabda o'zini tuta bilishi haqidagi ma'lumotlarni ota-onaga yetkazishi, zarurat tug'ilganda paydo bo'lgan muammolarni birgalikda hal qilishi zarur. Farzandi maktabga borgan ota-ona maktab jamoasining a'zosi bo'lib qolishi kerak. O'qituvchi va sinf rahbari ham o'z o'quvchisining oilasi bilan mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yishga lozim. Oila tarbiyasida ota-onalarning mahalla faollari, mehnat faxriylari bilan hamkorliklari ham muhim. Oila tarbiyasi farzandlarning har tomonlama kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratilsagina muvaffaqiyatli

bo'lishi mumkin. Oila tarbiyasida har bir oila o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. Oilaviy muhit bolaning psixologik rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Milliy qadriyatlarning tarbiyadagi roli:

Milliy qadriyatlar oilaviy tarbiyaning asosi hisoblanadi. Farzandni ma'naviy barkamol shaxs qilib tarbiyalashda quyidagi jihatlar alohida o'rin tutadi:

Milliy urf-odatlar va an'analarning saqlanishi: O'zbek oilalarida ota-onalar bolalarga o'z madaniy qadriyatlarini o'rgatish orqali ularning ma'naviy olamini boyitadi.

Axloqiy tarbiya: Vatanparvarlik, kattalarga hurmat va mehnatsevarlik kabi fazilatlarni shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni katta.

Diniy-ma'rifiy tarbiya: Islomiy qadriyatlar oilalarda farzandning axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy oilalarda tarbiya muammolari: Bugungi kunda texnologiyalarning rivojlanishi va urbanizatsiya jarayonlari oilaviy tarbiya jarayoniga yangi qiyinchiliklarni olib keldi. Ular orasida:

Raqamli texnologiyalar: Bolalar ko'p vaqtlarini gadgetlarda o'tkazishi tufayli ota-ona bilan muloqot kamaymoqda.

Bandlik muammosi: Zamonaviy ota-onalar ish bilan band bo'lib, farzandlari tarbiyasiga yetarli vaqt ajratolmayapti.

Madaniy ta'sirlar: Globallashuv tufayli milliy qadriyatlar o'rniga begona madaniyatlar ta'siri kuchaymoqda. Bu muammolarni hal etish uchun ota-onalar farzand tarbiyasida zamonaviy usullarni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishi zarur.

Xulosa va tavsiyalar:

Oilaviy tarbiya bolaning ma'naviy va psixologik rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Oiladagi bola tarbiyasi ikkiyoqlama ahamiyat kasb etadi, ota-onalar farzandlariga ahloq-odob, ruhiyat va ma'naviyatga oid bilimlardan saboq berish bilan qanoatlanib qolmasliklari, balki o'zlari ham tarbiyaning o'ziga xos sir-sinoatlari, hususiyatlari, uning mazmun-mohiyati va ma'nosiga doir eng yangi ma'lumotlardan xabardor bo'lib turishlari kerak bo'ladi. O'z farzandlariga oqilona tarbiya bera olgan ota-onalar, umrlarini rohat va farog'atda o'tkazadilar, bolalaridan hamisha olijanoblik, mehribonlik, yaxshilik ko'radilar, dillari aslo jaroxat azobini sezmaydi; o'kinish hissiga duchor bo'lmaydilar. Shu to'g'rida o'zbek xalqidagi quyidagi maqol darak beradi: "Toy ulg'aysa, ot tinadi (ya'ni ot minishdan qutqariladi)".

Quyidagi psixologik omillar oilaviy tarbiyaning samaradorligini belgilaydi.

1. Mehr va e'tibor: Ota-onaning farzandga nisbatan mehr-muhabbati va e'tibori bolada o'ziga ishonch va xavfsizlik hissini uyg'otadi, Bola bilan samimiy va ochiq muloqotni yo'lga qo'yishi, Oilada mehr va o'zaro hurmatni shakllantirishi, Milliy va ma'naviy qadriyatlarga asoslangan tarbiya usullarini qo'llashi lozim.
2. Konfliktlardan holi muhit: Oilada tinchlik va hamjihatlikning mavjudligi bolada ruhiy barqarorlikni ta'minlaydi.
3. Individuallikka hurmat: Farzandning qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olish shaxs sifatida uning rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Psixologik muhitda shakllangan muloqot uslublari ham bolaning dunyoqarashiga ta'sir qiladi. Masalan, demokratik yondashuv bolani mustaqil fikrlashga o'rgatsa, autoritar tarbiya uning ruhiy rivojlanishini cheklashi mumkin. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar va global ta'sirlarni hisobga olgan holda tarbiya jarayoniga moslashuvchan yondashish lozim. Bu esa kelajak avlodning barkamol shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. G'ofurov, E. "Pedagogik psixologiya". Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2020.
2. Elkonin, D.B. "Bola psixologiyasi". Moskva: Prosveshcheniye, 1978.
3. Jalolov, S. "Oila va tarbiya". Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2019.
4. Abduqodirov, A. "Shaxs kamoloti va tarbiya jarayonlari". Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2015.
5. Vygotskiy, L.S. "Psixologiya va ta'lim". Moskva: Pedagogika, 1984.
6. Qurbonov, M. "O'zbek oilasida tarbiya". Toshkent: Ma'naviyat, 2018
7. Bronfenbrenner, U. "Inson rivojlanishining ekologik tizimlari". Nyu-York: Harvard University Press, 1979.
8. Nazarov, M. "Oilaviy psixologiya asoslari". Toshkent: O'qituvchi, 2021.
9. Davletshin, A. "Oilaning psixologik muhitini shakllantirish". Toshkent: Sharq, 2016.
10. Internet ma'lumotlari.